



O‘ZBEKISTON AGRAR SIYOSATI
SAMARADORLIGINI ILMIY NAZARIY VA
AMALIY JIHATLARI

Mamayev
Bahodirjon
Nosirovich

AIQI, Tarmoqlar iqtisodiyoti kafedrası mudiri, dotsenti, i.f.n.

Annotatsiya	Ushbu maqolada mamlakatimiz agrar sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, shuningdek, qishloq xo ‘jaligini rivojlantirish borasida davlatimizning olib borayotgan agrar siyosati va uning asosiy yo ‘nalishlariga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan. Shuningdek, mamlaktimiz agrar-industrial davlat ekanligi va YAIM ning katta qismi deyarli 30 mlrd dollar aynan agrag sohaga to ‘g‘ri kelishni o ‘ziyoq mavzuni o ‘rganish va tahlil qilish naqadar muhim ekanligini ko ‘rsatib turibdi. Industrial davlatga aylanish davrida asosiy mablag‘imiz ham aynan agrar sohadan keladi. Har qanday rivojlangan davlatda ham agrar soha juda muhim hisoblanadi, ya’ni bu sohada doimo e‘tibor va doimo muhim.
Kalit so‘zlar:	agrar siyosat, agrar bozor, investitsiya, kredit, moliya, ilmiy texnikaviy va texnologik faoliyat, soliqlar va soliqqa tortish, ijtimoiy muhit, agrar tarkib, agrar iqtisodiyot, oziq – ovqat xavfsizligi, modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash, agrar islohotlar, yalpi ichki mahsulot, oziq-ovqat, agrar-industriya, sanoat, xavfsizlik, ratsion, qayta ishlash, talab, taklif, marketing, baholash.

Mamlaktimiz agrar-industrial davlat ekanligi va YAIM ning katta qismi deyarli 30 mlrd dollar aynan agrag sohaga to ‘g‘ri kelishni o ‘ziyoq yuqoridagi mavzuni o ‘rganish va tahlil qilish naqadar muhim ekanligini ko ‘rsatib turibdi. Industrial davlatga aylanish davrida asosi mablag‘imiz ham aynan agrar sohadan keladi. Har qanday rivojlangan davlatda ham agrar soha jua muhim hisoblanadi. Buning asosiy sababi esa shubhasiz oziq ovqat masalasidir.

Agrar sohaning katta qismini aynan oziq-ovqat sanoati tashkil etadi. Bu esa mavzuni o‘rganishning muhimlilik darajasini yanada ortiradi. Oziq ovqat sanoatida faqatgina mahsulot hajmigagina e‘tibor qaratmasdan uning saifati va xavfsizligiga va sifatiga ham e‘tibor qaratish juda muhimdir. Yaqinda mamlakatimiz bolalar to ‘yib ovqatlanmaydigan davlatlar qatoriga kiritildi. Gap oziq-ovqat miqdorida emas balki uning sifat va tarkibi haqida bormoqda. Bolalarning oziq-ovqat xavfsizligi ovqatlanish

ratsioni ko'rsatkichi bilan aniqlanadi.¹ U YUNISEF va Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu vaziyat ham tanlagan mavzuning ahamiyati va dolzarb ekanligini isotlab turtdi.

Jahon yer fondi bugungi kunda 13,4 mlrd.gektarni tashkil qiladi, uning atigi 1,5 mlrd.gektari, ya'ni 11 % qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi uchun iqtisodiy jihatdan qulay hisoblanadi¹. Lekin shunga qaramay, ushbu yerlar meliorativ holatining buzilishi, eroziya, qurg'oqchilik, sho'rlanishning kuchayishi va yer osti suvlarining ta'siri, sanoat va transport qurilishlari, foydali qazilmalarning ochiq tarzda o'zlashtirilishi natijasida sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlarining kamayishi keskinlashib bormoqda. Shuning uchun dunyo yer fondining asosiy muammosi – sug'oriladigan yerlarni saqlab qolish va ularning unumdorligini oshirib borish bo'lmoqda. Shu nuqtai nazardan jahonda sug'oriladigan yerlar unumdorligini oshirish va undan foydalanish samaradorligini oshirishning amaliy natijalariga qaratilgan keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda, ma'lumki, O'zbekiston respublikasi aholisi soni yuqori sur'atlar bilan o'sib borishi, qishloq xo'jaligi yerlarining boshqa toifaga o'tkazilishi va global iqlim o'zgarishi ta'sirining keskinlashuvi oqibatida "oxirgi 15 yilda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sug'oriladigan yer maydonlari o'lchami 24 %ga (0,23 gektardan 0,16 gektargacha), qisqardi"², bonitet bali 60 dan yuqori yerlarning maydoni 10,4 %ga qisqarib ketgan bo'lsa, yer sifati bo'yicha o'rtacha va o'rtachadan past maydonlar 14,0 %ga ko'paydi.

Agrar siyosat- umumiy iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismi bo'lib, qishloq xo'jaligi tarmog'i oldiga qo'yilgan vazifalarga erishishni ta'minlashga qaratilgan yer bilan bog'liq munosabatlarni isloh qilish asosida agrar munosabatlarni shakllantirish hamda shu munosabatlar ijrosini ta'minlashga qaratilgan agrotexnologik, tashkiliy va iqtisodiy tamoyil hamda vositalar majmui hisoblanadi. Agrar siyosat - iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, u qishloq xo'jaligi va unga bog'liq xo'jalik sohalarini qamraboladi. Agrar siyosatni davlatning agrar iqtisodiyot doirasida harakatga keltiriladigan jarayonlar shakli va metodlari ko'rinishidagi faoliyati deb ham tushunish mumkin. Agrar siyosat o'zida qishloq aholisini moddiy, ijtimoiy, huquqiy va iqtisodiy shart-sharoitlarini shakllantiradigan davlat faoliyatini qamrab oladi. Agrar siyosatning asosiy sohalari quyidagilarni o'z ichiga oladi: agrar bozor; investitsiya; kredit; moliya; ilmiy texnikaviy va texnologik faoliyat; soliqlar va soliqqa tortish; ijtimoiy muhit; maqsadli va tarkibiy qayta shakllanish. Agrar siyosatning asosiy vazifalaridan biri sifatida agrar qonunchilikka ta'sir o'tkazish, u orqali yer va yer bilan ishlovchilarning manfaatini ko'zlab ish olib borish hisoblanadi. Agrar tarkib - mamlakat rivojlanishi bilan bog'liq holda qishloq xo'jaligini tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishining natijasidir. Agrar tarkib - agrar qonunchilikka asoslangan, qishloq xo'jaligi rivojlanishi, aholining yashash va ishlash sharoiti xususiyatlari hisobga olingan, ishlab chiqarish omillariga bog'liq yig'indisidir. U mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlarda ifodalanadi. Agrar siyosatning asosida agrar bozor yotadi. Agrar bozor

¹ Kun.uz – O'zbekiston bolalar to'yib ovqatlanmaydigan davlatlar qatorida;

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi PF-5742-sonli farmoniga ilova. "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish kontseptsiyasi".

agrar siyosatni ham ishlab chiqaruvchi, ham iste'molchi manfaatlariga mos amalga oshirilishiga yordam qiladi³.

Agrar siyosatning asosiy vazifasi – agrar sohadagi jarayon va qarashlarni aks ettiribgina qolmasdan, balki kishilarning shu sohadagi qarashlari, jarayonlari va qonunlari tizimidagi faoliyatini ochib berishdir. Agrar siyosatning aniq vazifalariga quyidagilar kiradi:

- mamlakat aholisini iqtisodiy asoslangan baholardagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash;
- qishloq xo'jaligining umumiy daromad yaratish sohasidagi ishtirokini ta'minlash;
- atrof-muhitni muhofaza qilish muammolarini hal qilish.

O'zbekiston agrar sohasini rivojlantirish quyidagi muhim strategik maqsadlarni amalga oshirishni ko'zda tutadi:

- rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqqan holda qishloq xo'jaligida "dekapling" samarasiga erishish va organik qishloq xo'jaligini rivojlantirish;
- paxta va g'alla maydonlarini maqbul bo'lgan nisbatlargacha qisqartirish va ulardan bo'shagan yer maydonlariga aholi iste'moli uchun zarur bo'lgan qishloq xo'jaligi ekinlari ekish va shu orqali oziq –ovqat xavfsizligini ta'minlash;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini ko'paytirish orqali mamlakatimizga valyuta tushumini oshirish;
- ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini tashkil etish orqali qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash hamda shu asosda aholi bandligi va turmush darajasini oshirish.

Xulosa

Agrar siyosatni amalga oshirishning strategik vazifalari samarali raqobatbardosh agrosanoat ishlab chiqarishini shakllantirish, ijtimoiy soha bo'yicha qishloq aholisi turmush darajasini oshirish va qishloq joylarda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, ekologiya borasida esa ekologik toza iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish va agrosanoatning texnologik darajasini oshirish hamda resurslarni tejovchi texnologiyalarni joriy etish orqali tabiiy resurslarni saqlab qolish hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosini samarali tashkil etish, agrar sohada ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash, inson resurslarini rivojlantirish va uning salohiyatidan samarali foydalanish, kafolatli mehnat bozorini shakllantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.07.2023 y. PQ-216-son "Agrar sohada ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarishni integratsiya qilish orqali sifat va samaradorlikni oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi⁴. Ushbu qarorda 2023 yil 1 sentyabrdan boshlab sohadagi ilmiy tadqiqotlar mavzularini shakllantirish, ilm-fan natijalarini amaliyotga joriy qilish, kadrlar tayyorlashda agroklastlar, kooperativlar va boshqa qishloq xo'jaligi korxonalarining real ehtiyojlarini inobatga olishning yangi

³ J.Z.Farmanov, MAMLAKATIMIZDA AGRAR SIYOSATNI AMALGA OSHIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI, Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2022

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.07.2023 y. PQ-216-son "Agrar sohada ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarishni integratsiya qilish orqali sifat va samaradorlikni oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori

mexanizmi joriy etilishi belgilangan. Xususan, oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlik, ilm-fan yutuqlari, innovatsion texnologiyalarni joriy qilish, inson resurslarini rivojlantirish masalalari yangi tashkil etiladigan agroklastlar, kooperativlar va sohadagi boshqa yirik korxonalar faoliyatini tashkil etishda litsenziya va ruxsat etish tartib-taomillari belgilandi.

Agrar sohadagi muammolarning ilmiy-amaliy yechimlari bilan shug'ullanayotgan ilmiy-tadqiqot va oliy ta'lim muassasalarida ilmiy izlanishlarni jadallashtirish va samaradorligini oshirish uchun idoralararo Qishloq xo'jaligi fundamental tadqiqotlar markazini (Centre Of Excellence) hamda unda biotadqiqotlar va texnologiyalar bo'yicha zamonaviy laboratoriyalar majmuasini, shuningdek, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan qishloq xo'jaligi ekinlarining birlashgan Genbankini tashkil etish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda strategik ahamiyatga ega ekinlar seleksiyasi va urug'chiligini ilmiy asosda yo'lga qo'yish maqsadida Toshkent davlat agrar universitetining Qishloq xo'jaligi ekinlari urug'chiligi va urug'shunolik markazi, O'zbekiston-Vengriya kartoshkachilik ilmiy markazi, O'zbekiston-Serbiya qishloq xo'jaligi ekinlari urug'chiligi ilmiy markazi va O'zbekiston-Turkiya pistachilik ilmiy markazi faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi huzuridagi Dala ekinlari urug'chiligi milliy tadqiqot majmuasi direksiyasini tashkil etildi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. J.Z.Farmanov, MAMLAKATIMIZDA AGRAR SIYOSATNI AMALGA OSHIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI, Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2022
2. Yusupov, N. S., Qosimjon o'g'li, S. A., & Akramjon o'g'li, A. A. (2024). INVESTITSION LOYIHALARNI MUVAFFAQIYATLI AMALGA OSHIRISHDA ZAMONAVIY BOSHQARUVDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI. Journal of new century innovations, 54(2), 106-109.
3. Давидова Д. Т. СУФУРТАДА АХБОРОТ КОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ВА УЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ МЕЗОHLАРИ //MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH. – 2023. – Т. 2. – №. 23. – С. 56-62.
4. Mamayev B.N. RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANGAN HOLDA RAQAMLI MARKETING ELEMENTIDAN BIRI INTERNET-REKLAMADAN FOYDALANISHNING TENDENSIYALARI Vol. 1 No. 8 (2022): O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI /
5. Mamayev B.N. O'ZBEKISTONDA INVESTITSION MUHIT JOZIBADORLIGINI TA'MINLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI International scientific journal "Interpretation and researches" Volume 1 issue 20 | ISSN: 2181-4163 | UIF-2023: 8.2
6. Мамаев , Б. Н. (2023). ЎЗБЕКИСТОН БАЛИҚ САНОАТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА КЛАСТЕРЛАШ. Educational Research in Universal Sciences, 2(14), 693–700. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4511>